



# QISHLOQ XO‘JALIGIDA FIDOKORONA MEHNAT QILAYOTGAN HAR BIR INSONNING ZAHMATI, MARD VA OLIJANOB FAZILATLARI E‘TIROF VA E‘TIBORGA MUNOSIB

**Prezident Shavkat Mirziyoyev Ko‘ksaroy qarorgohida Qishloq xo‘jaligi xodimlari kuni munosabati bilan soha vakillari bilan uchrashuv o‘tkazdi.**



Davlatimiz rahbari so‘zining avvalida fidokorona va mashaqqatli mehnati bilan no‘ne‘mat yetishtirib, el dasturxoniga qut-baraka olib kirayotgan barcha dehqon, fermer, bog‘bon, chorvador, suvchi, agronom va mexanizatorlarga o‘zining chuqur hurmat-ehtiromini bildirdi.

— Sizlarning nafaqat qishloq xo‘jaligi, balki iqtisodiyotni yuksaltirish, aholi turmushini yaxshilash, oziq-ovqat xavfsizligi borasidagi beqiyos ishlaringiz har qancha tahsinga sazovor, — dedi Prezidentimiz.

Joriy yilda xalqimizning 3,5 milliondan ziyod

vakili mehnat qilayotgan qishloq xo‘jaligida katta marralarga erishildi. Paxtachilikda mirishkor dehqon va fermerlarimiz tomonidan 875 ming gektar yerda 4 million tonnaga yaqin xirmon yaratildi. Ilk bor paxtada o‘rtacha hosildorlik 46 sentnerga yetdi.

G‘allakorlarimiz bu yil 8 million 400 ming tonna xirmon yaratdi, o‘rtacha hosildorlik esa 85 sentner bo‘ldi. Sholikorlarimiz joriy yil 268 ming gektarda sholi ekib, 1 million 340 ming tonna hosil oldi, o‘rtacha hosildorlik 50 sentnerga yetdi.

Uch yilda 155 ming gektar bog‘ va uzumzor barpo etildi, intensiv bog‘lar 150 ming gektarga yetkazildi. Joriy yilda 3,4 million tonna meva, 2 million tonna uzum, 19,5 million tonna sabzavot, poliz va kartoshka, 1 million tonna dukkakli va moyli ekinlar yetishtirildi.

Yil boshidan oziq-ovqat eksporti 37 foizga o‘shib, 3 milliard dollarga yetdi, yil yakuni bilan bu ko‘rsatkich ilk bor 3,2 milliard dollardan oshadi. Meva-sabzavotlarimiz kirib borgan davlatlarning soni 18 taga ko‘payib, 83 taga yetdi.



— Albatta, bunday ulkan natijalar ortida dehqon va fermerlarimiz, klasterlar, umuman, qishloq va suv xo‘jaligi sohasidagi har bir insonning mehnati, jasorati, fidoyiligi turibdi, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Ularning zahmati, mard va olijanob fazilatlari har qancha e‘tirof va e‘tiborga munosib, — dedi Prezidentimiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining shu yil 9-dekabrda farmoniga muvofiq, sohada alohida o‘mak ko‘rsatgan xodimlardan bir guruhi faxriy unvon, orden va medallar bilan taqdirlangan edi.

Marosimda ana shu mukofotlar tantanali ravishda topshirildi.

Prezidentimiz so‘zining davomida kelgusi yil uchun soha oldida turgan eng muhim vazifalarni belgilab berdi.


Yangi agrotexnologiya yordamida 76-sxema bo‘yicha paxta yetishtirish kelgusi yilda ommalashtirilib, 891 ming gektarda to‘liq shu sxema bo‘yicha paxta yetishtiriladi. Ko‘sak qurti, gerbitsid, sho‘r va suvsizlikka chidamli xorijiy navlar ekiladigan maydonlar 2 karra ko‘paytirilib, 500 ming gektarga olib chiqiladi.

“Shinjon tajribasi” asosida 300 ming gektarga chigit ekiladi. Buning uchun dalalarda tomchilab sug‘orish texnologiyasini joriy etishga 2 trillion 600 milliard so‘m imtiyozli kredit ajratiladi. O‘z mablag‘idan paxta yetishtirgan fermerlarga hosilning 10 foizigacha qismini subsidiyalashga 250 milliard so‘m beriladi.

Bunda paxta yetishtirish uchun kredit limitini yarmidan foydalangan fermerlarga ham hosilning 5 foizigacha subsidiyasi beriladi.

Mahalliy yangi paxta navlarini yaratish ishlariga ham alohida e‘tibor qaratiladi.

**Davomi 2-betda**



## Taqdimot

### YANGI O‘ZBEKISTON: SHAVKAT MIRZIYOYEV YO‘LI

**Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida taniqli siyosatshunos, senator, O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi raisi Qudratilla Rafiqovning “Yangi O‘zbekiston: Shavkat Mirziyoyev yo‘li” kitobining ingliz tilidagi nashri taqdimoti bo‘lib o‘tdi.**

Asarda Shavkat Mirziyoyev tomonidan so‘nggi sakkiz yil ichida boshlangan va amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy bosqichlari va yo‘nalishlari qayd etilgan, shuningdek, ularning mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishiga ta‘sirini ochib berilgan.

Taqdimotda davlat idoralari, diplomatik korpus, fuqarolik jamiyati institutlari, ilmiy doiralar va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

**Davomi 2-betda**

## Munosabat

Bugun dunyo miqyosida muhim geosiyosiy jarayonlar kechayotgan bir paytda O‘zbekiston Prezidenti tomonidan ilgari surilayotgan “Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish” g‘oyasi jahon hamjamiyati tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilinmoqda. Mazkur tashabbus, ko‘plab ekspertlar e‘tirof etganidek, insoniyat taraqqiyotining yangi sivilizatsion modeli sifatida yuqori baholanyapti.

### BARQAROR TARAQQIYOTNING YANGI SIVILIZATSION MODEL

Shu yil oktabrda Islomobod shahrida pokistonlik yozuvchi hamda publitsist Muhammad Abbas Xonning urdu tilida yozilgan “O‘zbekiston: Uchinchi Renessans — taraqqiyot konsepti” badiiy-publitsistik asarining rasmiy taqdimoti o‘tkazilib, unda Pokiston hukumati va parlamenti a‘zolari, diplomatik korpus vakillari, ilmiy doiralar, jurnalistlar hamda keng jamoatchilik vakillari qatnashgan edi.

**Davomi 3-betda**

## KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO‘YICHA KENG KO‘LAMLI SA‘Y-HARAKATLAR AMALGA OSHIRILMOQDA

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 10-dekabr kuni korruptsiyaga qarshi kurashish, komplayens nazoratini takomillashtirish va raqamlashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar hamda kelgusidagi rejalar taqdimoti bilan tanishdi.**

Korrupsiya — aksariyat jamiyatlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga putur yetkazuvchi jiddiy jinoyatdir. Biror-bir mamlakat, mintaq, jamiyat korruptsiyadan immunitetga ega emas. Korruptsiya tadbirkorlikka, fanga, ta‘limga, sog‘liqni saqlash va boshqa ko‘plab sohalariga jiddiy zarar yetkazadi, mamlakat korruptsiyalashgan tizimda muvaffaqiyatli rivojlana olmaydi.

Yangi O‘zbekistondagi islohotlarning boshidanoq bu haqiqatni chuqur anglagan holda korruptsiyaning oldini olish, shaffoflikni

oshirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar izchil amalga oshirilmoqda.

Ushbu mavzu ayni shu kunlarda muhokama qilinyotgani bejiz emas. Zero, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashabbusi bilan 2004-yildan boshlab har yili 9-dekabrda Xalqaro korruptsiyaga qarshi kurashish kuni butun dunyoda nishonlanadi. Ushbu sana mazkur yo‘nalishdagi sa‘y-harakatlar samarasini baholash, amaliy natijalarni tahlil qilish va yangi vazifalarni belgilash uchun muhim fursat.

O‘tgan davrda davlat organlarida komplayens nazorati tuzilmalarining faoliyati qayta ko‘rib chiqilib, ichki nazorat bo‘linmalarida 11 mingdan ortiq o‘rganishlar o‘tkazilgani, 793 milliard so‘mlik mablag‘larning maqsadsiz sarflanishining oldi olingani ma‘lum qilindi. Qariyb 2 trillion so‘mlik moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlandi, 478 milliard so‘mlik zarar undirildi.

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalarining samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) tasdiqlangani,

ular tomonidan 700 dan ortiq o‘rganish, monitoring va nazorat tadbirlari o‘tkazilgani natijasida 354 milliard so‘mlik moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlandi, 1397 ta manfaatlar to‘qnashuvi holati hamda qariyb 550 milliard so‘m mablag‘ning maqsadsiz sarflanishining oldi olindi. Mansabdor shaxslarga nisbatan 26 ta jinoyat ishi qo‘zg‘atildi, 24 nafari ma‘muriy va 148 nafari intizomiy javobgarlikka tortildi.

**Davomi 2-betda**

## PARAGVAY PREZIDENTI RASMIY TASHRIF BILAN O‘ZBEKISTONDA BO‘LADI

**Paragvay Respublikasi Prezidenti Santyago Penya 11-13-dekabr kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘ladi.**

Tashrif dasturiga muvofiq, Toshkentda bo‘lib o‘tadigan oliy darajadagi muzokaralarda O‘zbekiston bilan Paragvay o‘rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy va gumanitar sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari muhokama qilish rejalashtirilgan.

Qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat va kimyo sanoati, raqamlashtirish, turizm hamda sport

sohalarida amaliy sheriklikni o‘rnatishga alohida e‘tibor qaratiladi.

Paragvay yetakchisi, shuningdek, Xalqaro avtomobil federatsiyasi Bosh assambleyasida va federatsiya shafeligida o‘tkaziladigan musobaqalar g‘oliblarini taqdirlash marosimida ishtirok etadi.



# BARQAROR TARAQQIYOTNING YANGI SIVILIZATSION MODEL

“**Davlatimiz rahbarining “Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma’naviy merosi biz uchun harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o’lmas meros bizga hamisha kuch-quvvat va ilhom bag’ishlashi lozim” degan so’zlari kitobning “Asriy donishmandlik va Buyuk uyg’onish ohangida bong urayotgan tamaddun yurti” bobining asosiy mazmunini belgilaydi.**



bo’lagimam” degan ko’rsatmaga ega bo’lishi zarur. Bu orqali xalqimizning uch ming yillik ma’naviy tajribasi yana bir bor e’tirof etilgan.

Asar yakunida muallif O’zbekistonni insoniyat tamadduniga benazir hissa qo’shgan yurt sifatida tasvirlab, “Ba’zi mamlakatlarda kitob sahifalariga o’xshaydi — o’qisang, yopib qo’yasam. Ammo muqaddas O’zbekistonning borasida O’zbekiston uchun yangi uyg’onish davri boshlandi”, Xitoy, Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq va Yevropani bog’lovchi transport yo’laklari tizimi bo’lgan yangi Ipak yo’li haqida bildirilayotgan fikrlar Uchinchi Renessansni bunyod etish jarayonlarining shiddatini ham yaqqol namoyon qiladi.

maqsad — zamonaviy dunyo chaqiriqlariga javob bera oladigan yangi avlod yetakchilari va mutaxassislarini tayyorlash. Xalqaro o’qitish uslublari (masalan, Cambridge, IB) izchil joriy etilgan ushbu maktablarda ta’lim va tabriya o’zbekistonlik va xorijlik malakali o’qituvchilar yordamida, o’quvchilarni saralash esa qat’iy tanlov asosida amalga oshiriladi. Zero, yangi Renessansni barpo etish kuchli insonlar tanlovidir. Bu nafaqat tarixiy davr, balki qalb amri hamdir”.

Bundan tashqari, kitobda O’zbekiston milliy davlatchilik rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga oid qator tarixiy misollar keltiriladi. Asarni o’qigan odam Samarqanddan Buxorogacha, Xivadan Toshkentgacha bo’lgan bepoyon o’zbek zamini asrlar davomida madaniyatlar va savdo yo’llari chorrahasi, Sharq ilmiy, falsafiy hamda ma’naviy tafakkurining yuragi bo’lib kelganini anglab olishi qiyin emas.

Asarda O’zbekiston Prezidentining Birinchi Renessans davrida O’zbekiston zaminida ilm-fan sohasida dunyoga mashhur buyuk donishmandlar, xususan, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg’oni, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy va boshqa allomalar, o’nlab daholar o’zlarining

g’oyalar nafaqat O’zbekiston kelajagi uchun asos, balki yangi, yanada uyg’un va samarali dunyoni shakllantirishning innovatsion modeli hamdir. Chunki bu konsepsiya fan, madaniyat, texnologiyalar va insonparvarlik qadriyatlarini uyg’unlashtirgan holda insoniyat tamaddunini tizimli ravishda o’zgartirib, yangilab borishni taklif etadi” deb yozadi.

E’tiborga molik jihatlaridan yana biri shundaki, yozuvchi o’z fikrini aniq tarixiy hujjatli ma’lumotlar, ko’plab ishonchli manbalar va yevropalik taniqli olimlarning guvohliklari asosida isbotlashga harakat qiladi. “O’sha davr mutafakkirlari, olimlari va madaniyat arboblarning aksariyati aynan turkiy muhitdan — Xorazm, Buxoro, Samarqand, Shosh, Farg’ona va Nasaf kabi muazzam zaminlarda yetishib chiqqan” deb uni yevropalik tarixchilarning asarlarida keltirilgan misollar va tarixiy dalillar orqali isbotlaydi.

Xususan, ushbu kitobda taniqli olim Frederik Starming (AQSH) fikrini o’qir ekansiz, juda qiziq bir tarixiy dalil e’tiboringizni tortmay qolmaydi. Muallif o’z asarida bunday yozadi: “XI asrda yashagan arab olimi Abu Ali al-Misriy arab tilida ijod qilgan barcha “davrnng eng munosib kishilari” ro’yxatini tuzganida, umumiy 415 kishining uchdan bir qismi Markaziy Osiyodan chiqqan, ya’ni turkiylar edi. Ayniqsa, tabiiy fanlar, falsafa va matematika sohalarida Markaziy Osiyoning ustunligi yaqqol ko’zga tashlanadi — bu yo’nalishda mintaqal olimlari umumiy sonining 90 foizini tashkil etgan. Bu olimlarning ona tili asosan turkiy tillar oilasiga mansub bo’lgan”. Frederik Starr alohida jo’shqinlik bilan ishonchli tarzda fikr bildirib, islom oltin asrining haqiqiy intellektual markazi Markaziy Osiyo bo’lganini ta’kidlaydi. Ana shunday markazlar, asosan, hozirgi O’zbekistonning Urganch, Xiva, Buxoro, Samarqand, Nasaf, Shosh (Toshkent) Marg’ilon kabi o’nlab shahar va qishloqlari bo’lganini qayd etadi.

Binobarin, kitobda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish maqsadi mustahkam tarixiy asosga ega ekan alohida ta’kidlanadi.

mumkin. Shu ma’noda O’zbekiston intellektual kompas-qutbnamo bo’lib, Yevroosiyoqning qoq yuragida joylashgan mamlakat sifatida yana yangi tashabbus va mulqotlar markaziga aylanmoqda. “Ikkinchi Sharq Uyg’onish davri” sifatida Temuriylar Uyg’onish davriga murojaat qilishning dolzarbligi shundan kelib chiqadi.

Zero, Renessans tajribasi endi fan, ma’naviyat, madaniyat hamda innovatsiyalarning yagona, uyg’un rivojlanish modeliga birlashtiriladi. Bu esa “kelajak formulalarini” yaratish imkonini beradi. Shuning uchun kitobning beshinchi bobi asosiy o’rinni egallaydi. U O’rta asrlar davrining buyukligi va kelajakka intilayotgan zamonaviy voqelik o’rtasidagi o’ziga xos ko’prik bo’ladi. Temuriylar Uyg’onish davri Amir Temur va uning avlodlari — Ulug’bek, Shohruh, Husayn Boyqaro va boshqalar hukmronlik qilgan zamondir. U hozirgi O’zbekiston hududida XIV-XVI asrlarda gullab-yashnagan ulkan madaniy va ilmiy ko’tarilishdir. Birinchi Sharq Renessansini buyuk daholar — Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino kabi allomalar yaratgan bo’lsa, ikkinchisi bilim, kuch va san’at uyg’unligida sodir bo’ldi. Bunda tashabbus va rejalar davlat siyosatiga, ilm-fan esa saltanatan tayanchiga aylandi.

“Janob Shavkat Mirziyoyevning ta’biri bilan aytganki deb yozadi muallif, zamonlar o’tadi, muhit o’zgaradi. Bugungi poydevor natijasini o’zbek xalqi, albatta, ko’radi. Yushlarimizdan yana ko’plab buxoriylar, beruniylar, ulug’beklar yetishib chiqadi”.

Darhaqiqat, buyuk tafakkur tarixiy bilim va haqiqatga intilish bor joyda hamisha davom etadi. O’zbekiston tarixi bu zaminidan yetishib chiqqan jahonga mashhur daholarga boy. Agar hozirgi avlod sifatli ta’lim, ilmiy madad va fikr erkinligidan bahramand bo’lsa, Prezidentimizning so’zlari ro’yobga chiqishi shubhasiz.

Xususan, ushbu kitobda taniqli olim Frederik Starming (AQSH) fikrini o’qir ekansiz, juda qiziq bir tarixiy dalil e’tiboringizni tortmay qolmaydi. Muallif o’z asarida bunday yozadi: “XI asrda yashagan arab olimi Abu Ali al-Misriy arab tilida ijod qilgan barcha “davrnng eng munosib kishilari” ro’yxatini tuzganida, umumiy 415 kishining uchdan bir qismi Markaziy Osiyodan chiqqan, ya’ni turkiylar edi. Ayniqsa, tabiiy fanlar, falsafa va matematika sohalarida Markaziy Osiyoning ustunligi yaqqol ko’zga tashlanadi — bu yo’nalishda mintaqal olimlari umumiy sonining 90 foizini tashkil etgan. Bu olimlarning ona tili asosan turkiy tillar oilasiga mansub bo’lgan”. Frederik Starr alohida jo’shqinlik bilan ishonchli tarzda fikr bildirib, islom oltin asrining haqiqiy intellektual markazi Markaziy Osiyo bo’lganini ta’kidlaydi. Ana shunday markazlar, asosan, hozirgi O’zbekistonning Urganch, Xiva, Buxoro, Samarqand, Nasaf, Shosh (Toshkent) Marg’ilon kabi o’nlab shahar va qishloqlari bo’lganini qayd etadi.

Binobarin, kitobda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish maqsadi mustahkam tarixiy asosga ega ekan alohida ta’kidlanadi.

## Xalqlar manfaatiga yo’naltirilgan yangi tafakkur paradigmasi

Mazkur kitobning “Vaqt izmiga bo’ysunmas abadiy g’oyalar” nomli bobi muallif tomonidan Uchinchi Renessans zamonaviy dunyo va insoniyat taraqqiyoti uchun bunyod etilayotgan mutlaqo yangi global model sifatida talqin etilishi bilan e’tiborga molik. Asarda qayd etilganidek, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish tashabbusi orqali umumbashariy qadriyatlarga asoslangan kelajak doktrinasini jahon hamjamiyatiga yetkazilmoqda.

Muallif aytganidek, tamaddunlarning yuzaga kelishi uchun insonlarni birlashtira oladigan, ularning intilishlarini taraqqiyotga yo’naltira oladigan ulkan va ilg’or g’oyalar tug’ilishi shart. Bunday g’oyalar inson tafakkurini, ilm-fan, madaniyat, iqtisodiyot va texnologiyalar rivojini tubdan o’zgartira oladi. Shu ma’noda, yozuvchi Uchinchi Renessansni barcha xalqlar manfaatiga yo’naltirilgan yangi tafakkur paradigmasi, deya baholaydi.

Qolaversa, Uchinchi Renessans g’oyasi ma’rifat, tinchlik va mulqot qadriyatlariga tayangan chuqur transformatsiya jarayoni sifatida yoritilgan. “Xayrli ish yaxshi niyatdan boshlanadi” degan talqin esa asarning falsafiy asoslaridan biri sifatida ifodalangan, haqiqiy yangilanish inson qalbidagi egzulik hamda adolatga intilishdan boshlanishi ta’kidlanadi.

Muhammad Abbos Xon ushbu kitobda yangicha insonparvar yondashuvni alohida qayd etib, bunday yozadi: “Insoniyat tarixida davlat yoki imperiyalar ham barqarorroq narsa bor bu — buyuk g’oyalardir. Ular tarix yo’nalishini o’zgartirib, kelajakni shakllantiradi. Ana shunday konsepsiyalardan biri Uchinchi Renessans poydevorini yaratish tashabbusidir. Ushbu g’oya insoniyat tafakkurining ulkan ummoniga quyiluvchi qadratli daryoga o’xshaydi”.

E’tibor bering, mazkur matnda “Yangi O’zbekiston” tushunchasining ilmiy va tarixiy ahamiyati ochib berilgan, uning zaminida, bir tomondan, bugungi hamda kelajak avlodlarning Uchinchi Renessansni barpo etishga qaratilgan eazu maqsadlari, ikkinchi tomondan esa ajdodlarimiz boshlab bergan Birinchi va Ikkinchi Renessanslar ruhi va orzulari mujassam.

Muallif nazdida O’zbekistondagi Uchinchi Renessans faqatgina mamlakatning o’zi uchun emas, balki mintaqal, ehtimol, butun dunyo taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu g’oya yangi, yanada uyg’un va samarali dunyoni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bu hali hammasi emas. Asarda Uchinchi Renessans lov etib yonib, tez so’nib qoladigan hodisa emasligi, aksincha, qorong’ulikni asta yorituvchi nurga qiyoslanadi. Muallifning ta’kidlashicha, agar Birinchi Renessansda inson “Men yaratuvchiman”, Ikkinchi Renessansda “Men tadqiqotchiman” degan bo’lsa, Uchinchi Renessansda u “Men olam yaxlitligining bir

Ma’naviy meros — Uchinchi Renessansning mustahkam poydevori

## Ta’lim — asosiy harakatlantiruvchi kuch

Kitobxon e’tiborini o’ziga alohida jalb etadigan yana bir bobi “Uyg’onish davri ilmfan va ma’rifatdan boshlanadi” deb nomlangan. Negaki, bugun mamlakatimizda Renessansning uchinchi to’lqini yanada jadal namoyon bo’lmoqda.

Muallifning asarni yaratishda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Hozirgi zamon va Yangi O’zbekiston” nomli fundamental kitobidan ilhom olgani ravshan sezilib turadi. Xususan, “Uchinchi Renessans — Buyuk ipak yo’li innovatsion g’oyalarning vorisi” deb nomlangan bob davlatimiz rahbari tomonidan Buyuk ipak yo’li an’analari zamonaviy sharoitda qayta tiklash haqida ilgari surilgan g’oyalar va bu jarayonni oldinga yetaklayotgan iqtisodiy-strategik tashabbuslarga bag’ishlangan.

Muallif fikricha, Buyuk ipak yo’li faqat tarix sahifalarida qolib ketmagan, u bu muqaddas yurtning qalbidagi, xalqning xotirasida va madaniy o’zligida hamon tirik. Uchinchi Renessans g’oyasi esa bu ulkan merosni yangi asr talabi, global taraqqiyot tezligi hamda zamonaviy O’zbekistonning ma’naviy-iqtisodiy rivojlanishi yo’li bilan uyg’un ravishda birlashtiradi.

Asarda muallif bunday deydi: “Janob Shavkat Mirziyoyevning Buyuk ipak yo’lini yangi tarixiy sharoitda tiklash tashabbusi shunchaki strategik qaror emas. U dunyoga ‘Ipak yo’li darvozalari’ni ochar ekan, yangilikka intiladi, yangilik yaratadi. Mening nazarimda, bu yangi dunyo tartibiga yangicha chaqiriqdir. Farqlar ajratilmaydigan, balki boyitiladigan, global birlik esa milliy o’zlikka hurmatdan boshlanadigan dunyoni qurishga da’vatdir”.

Muallif ta’kidlaganidek, Buyuk ipak yo’li an’anasini tiklash birgina iqtisodiy yoki diplomatik loyiha emas. Bu ishonch falsafasi, qo’rquv, yopiqlik va yakkalanishga qarshi kurash hamdir. Bir paytlar karvon yo’llari shaharlarni va tamaddunlarni bog’lagani kabi bugun ham ochiqlik, hamkorlik hamda samimiyat bilan qalblar va tafakkurlarni birlashtirish mumkinligi haqidagi ulkan egzulikdir.

Qayd etilganidek, bugun O’zbekistonning jahon bozorlariga munosib chiqishi va Buyuk ipak yo’lini zamonaviy ta’bir bilan tiklashi

## Ta’lim — asosiy harakatlantiruvchi kuch

Kitobxon e’tiborini o’ziga alohida jalb etadigan yana bir bobi “Uyg’onish davri ilmfan va ma’rifatdan boshlanadi” deb nomlangan. Negaki, bugun mamlakatimizda Renessansning uchinchi to’lqini yanada jadal namoyon bo’lmoqda.



Ma’rifat, ilm-fan va ta’lim Uchinchi Renessans sari dadil amaliy qadamlar qo’yayotgan O’zbekistonning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Yangi O’zbekistonda ilm-fan, innovatsion texnologiyalar va ilg’or kashfiyotlar barchamiz orzu qilgan ushbu uyg’onishning hayotbaxsh ruhini yuksaltirmoqda. Ajdodlarimizning ma’naviy ildizlari esa zamonaviy O’zbekiston taraqqiyotida o’zining mustahkam hamda munosib ifodasini topayotir.

Ayniqsa, Prezident maktablari o’z azmu shijoati, bunyodkorlik salohiyati bilan Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etayotgan yoshlarimizning ijodxonalariga aylangan, desak ayni haqiqat. O’zbekiston yangi avlodni — ilg’or fikrlaydigan insonlarni shakllantirmoqda. Millat yetakchisi orzu qilayotgan Renessansni davom ettirish, yanada chuqurlashtirish ham aynan ularning zimmasidadir.

“Prezident maktablari, — deb yozadi pokistonlik adib, — Shavkat Mirziyoyevning shaxsiy tashabbusi bilan tashkil etilgan innovatsion umumta’lim muassasalari tarmog’idir. Bunday maktablarni tashkil etishdan

jahon miqyosidagi ilmiy yutuq va kashfiyotlari bilan insoniyat rivojiga ulkan hissa qo’shtigan degan fikrlari O’zbekiston, Germaniya, Britaniya, AQSH, Fransiya kabi davlatlarning yetuk olimlari asarlaridan olingan iqtiboslar orqali bayon etilgan.

Davlatimiz rahbarining “Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma’naviy merosi biz uchun harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o’lmas meros bizga hamisha kuch-quvvat va ilhom bag’ishlashi lozim” degan so’zlari kitobning “Asriy donishmandlik va Buyuk uyg’onish ohangida bong urayotgan tamaddun yurti” bobining asosiy mazmunini belgilaydi.

Buyuk ajdodlarning ma’naviy merosiga tayangan Uchinchi Renessans g’oyasi pokistonlik adib nazdida faqat siyosiy tashabbus sifatidagina emas, balki butun insoniyatning adolati, ma’rifati va bunyodkorlikni shior qilgan kelajagi uchun o’ziga xos gumanitar-madaniy platforma tarzida namoyon bo’ladi. Shundan kelib chiqib, muallif “Shavkat Mirziyoyevning g’oyasi inson tafakkurining bemisli ummoniga quyiluvchi qadratli daryoga o’xshaydi. Fikrimcha, bu

## Yuksak bilim va buyuk kashfiyotlar beshigi

Muallif o’z asarida butun insoniyat merosiga aylangan, Birinchi va Ikkinchi Renessansni yaratishda benazir hissa qo’shgan Al-Xorazmiy, Al-Farg’oni, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug’bek kabi buyuk allomalar haqida atroflicha so’z yuritadi. Bu borada alohida bob ajratilib, uning aksariyat sahifalari islom olamining Imom Buxoriy, Imom Termizi, Imom Zamaxshariy, Bahoudin Naqshband kabi ma’naviy peshvolari ijodiy merosiga bag’ishlangan.

Jadidchilik fenomeni — XIX asrning oxirida O’zbekistonda shakllangan ma’rifatparvarlik harakati ham tahlil qilinadi. Muallif ta’kidlaydiki, jadidlar uchun xalqni ma’rifatlashtirish taraqqiyotning kaliti bo’lgan. U islohotlarning g’oyaviy jihatlarini, milliy ong uyg’onishi va ma’naviy yangilanish masalalarini pokistonlik buyuk faylasuf Muhammad Iqbol falsafasi bilan qiyosiy tahlil qiladi.

Islohotlar ta’lim bilan, iqtisodiy taraqqiyot esa insonparvarlik tamoyillarini tiklash bilan birga kechganda barqaror taraqqiyotga erishish

## Xulosa o’rnida

Umuman olganda, pokistonlik mashhur yozuvchi hamda publitsist Muhammad Abbos Xonning kitobi mohiyati va ahamiyati haqida juda ko’p fikr bildirish va tahlil qilish mumkin.

Eng muhimi, ushbu asar, shubhasiz, Uchinchi Renessans sari dadil qadamlar qo’yayotgan yangi O’zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar mohiyatini chuqur anglashga, bu borada teran mushohada yuritishga yordam beradi. Har qanday o’quvchini keng mulohazaga chorlaydi — unda davlatimiz rahbarining tarix devor emas, balki ko’prikka, kelajak esa raqobat emas, balki hamkorlik maydoniga aylanadi degan fikrlari aniq misollar orqali ifoda etilgani bilan yanada ta’sirlidir.

Bu asar kitobxonga O’zbekistonning madaniy yangilanish, xalqlar mulqoti va ijodiy hamjihatlik maydoniga aylanib borayotganini chuqurroq anglash imkonini berishi shubhasiz.

Darvoqe, pokistonlik siyosatchi va ilmiy ekspertlar fikricha, yozuvchi Muhammad Abbos Xonning ushbu kitobi, unda ko’tarilgan fikr va talqinlar nafaqat Pokistonda, balki butun Yevropa va boshqa mamlakatlarda ham yuqori baholanmoqda.

**Abdulaziz ABDULLAYEV,**  
siyosatshunos

4

2025-yil 11-dekabr, 256-son

KONSTITUTSIYA – inson qadri, erkinlik, tenglik va adolat garovi!

# USHALAYOTGAN MILLIONLAB ORZULAR ASOSI

Shahzod BAXTIYOROV,  
Jinoyat ishlari bo'yicha  
Dehqonobod tumani sudi raisi

2025-yil O'zbekiston davlatchiligidagi tub burilish davri — taraqqiyot o'zani kengayib, yangi rivojlanish bosqichiga asos bo'lgan yil sifatida tarixda qolishi shubhasiz. Zero, keyingi 7-8 yildagi islohotlar shiddati va yuksak samarasini alohida e'tirof etgan holda ayni paytda yangi O'zbekiston dunyo jamoatchiligi diqqat-markazida ekani, shunga mos ravishda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, qo'yingki, barcha jahhada tarixiy yangilanishlarga yuz tutayotgani, olamshumul katta natijalar qo'lga kiritilayotgani, bu esa o'z navbatida, yangidan yangi maqsadlarga yo'l ochayotganini ta'kidlash o'rinni.

Bunda Prezidentimizning 8-dekabr — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni munosabati bilan xalqimizga yo'llagan tabrigida qayd etilganidek, "Hech shubhasiz, xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkuri hamda yuksak xohish-irodasining ifodasi bo'lgan Konstitutsiyamizda muhrlab qo'yilgan qoida va tamoyillar Yangi O'zbekistonda barpo etishda barchamiz uchun beqiyos kuch-g'ayrat, ishonch va ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda".

Darhaqiqat, keyingi vaqtlarda barcha soha va tarmoqlarda qo'lga kiritilayotgan natijalarimiz zamirida, eng avvalo, insonparvarlik va xalqparvarlik tamoyillari mujassam. Zero, joriy yilda aholi jon boshiga daromad 3500 dollarni tashkil etgani, maktabgacha ta'limga qamrov 78 foiz, oliy ta'limga esa 42 foizga yetgani, aholining o'rta umr ko'rish darajasi 73,8 yoshdan 75,1 yoshga uzaygani ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Avvalo, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ilgari amalda bo'lgan "davlat — jamiyat — inson" paradigmasi "inson — jamiyat — davlat" tamoyiliga o'zgartirilib, O'zbekiston

“YANGI KONSTITUTSIYAVIY NORMALAR, UMUMAN, KONSTITUTSIYA TO'G'RIDAN TO'G'RI ISHLAYDIGAN HUJJAT BO'LISHI, YA'NI UNING NORMALARINI SUDLARDA TO'G'RIDAN TO'G'RI QO'LLASH AMALIYOTINI YO'LG'A QO'YISH MAQSADIDA OLIY SUD PLENUMINING TEGISHLI QARORI QABUL QILINDI.

ijtimoiy davlat sifatida e'lon qilingani, shu asosda "inson qadri uchun" g'oyasi barcha yo'nalishdagi islohotlar maqsad-mohiyatiga aylanganini qayd etish joiz.

Binobarin, keyingi yillarda ayni yo'nalishdagi islohotlar samarasi o'laroq 1 million nafardan ziyod fuqaro kambag'allikdan chiqarildi, kambag'allik darajasi 6,6 foizga tushirildi. O'z navbatida, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, yurtdoshlarimiz uchun munosib turmush darajasini ta'minlash, mustahkam huquqiy tizim va ochiq jamiyat barpo etish yo'lidagi keng ko'lamli islohotlar dunyo jamoatchiligi tomonidan munosib e'tirof etilmoqda. Xususan, 2025-yilda Barqaror rivojlanish maqsadlari indeksida O'zbekiston 19 pog'ona yuqori ko'tarilib, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida eng jadal rivojlanayotgan mamlakat sifatida qayd etildi. Global innovatsiya indeksida yurtimiz Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari bo'yicha kuchli uchlikdan joy oldi. "S&P", "Fitch" va "Moody's" kabi nufuzli xalqaro agentliklar tomonidan O'zbekistonning suveren kredit reytingi oshirildi.

Ochig'i, ushbu ro'yxatni yana uzoq davom ettirish mumkin. Asosiysi, bularning barchasi Bosh qonunimizda davlatning ijtimoiy majburiyatlariga oid normalar qariyb uch baravar ortgani hamda shu asosda har bir insonning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi, yaxshi o'qishi, ishlashi, umuman, farovon yashashi yo'lidagi yangilanishlar samarasidir.

Ijtimoiy davlatga xos yondashuv ta'lim, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, Konstitutsiya normalarini sudlarda to'g'ridan to'g'ri qo'llash, ekologiya va yoshlar masalasi, ochlik siyosati, iqtisodiyot va tadbirkorlikni rivojlantirish, odil sudlovga erishish va sudyalarning mustaqilligini ta'minlashda o'z ifodasini topdi.

Konstitutsiya ustuvorligi, birinchi navbatda, sudlarda namoyon bo'lishi lozim. Chunki sudga ishi tushgan har bir inson erki va huquqi aynan Konstitutsiya bilan himoyalanganini his qilishi lozim.

Shu o'rinda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga sud-huquq yo'nalishida kiritilgan yangi normalarga to'xtalsak. Bularga quyidagilarni misol sifatida keltirish mumkin:

- "Miranda qoidasi", ya'ni shaxsni ushlab chog'ida gumonlanuvchiga uning huquqlari va nima sababdan ushlanganini sodda tilda tushuntirib berish shartligi;
- "Xabeas corpus" instituti: shaxs sudning qaroriga qadar ko'pi bilan 48 soatdan ortiq ushlab turilishi mumkin emasligi;



- o'lim jazosi taqiqlanishi;
- shaxsning sudlangani va undan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklashga asos bo'lishi mumkin emasligi;
- mahbuslarga nisbatan insoniy munosabat ko'rsatilishi va ularning qadr-qimmatini ta'minlanishi shartligi;
- ma'muriy, fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat javobgarlik va boshqa yo'nalishdagi ishlarni ko'rib chiqishda insonga nisbatan qo'llanadigan huquqiy ta'sir choralarini qonuniy maqsadga erishish uchun yetarli bo'lishi hamda shaxsga imkon qadar yengillik yaratishi kerakligi;
- sudning qarorisiz hech kim uy-joyidan mahrum qilinmasligi;
- imorat buzilishiga tushganda buzishdan oldin uning qiymatiga mos kompensatsiya to'lanishi shartligi;
- uy-joyga yoki shaxsning boshqa mol-mulkiga uning ruxsatisiz kirish, ularni ko'zdan kechirish va tintuv o'tkazishga faqat qonunda belgilangan holat va tartibda yo'l qo'yilishi.



Ushbu yangi konstitutsiyaviy normalar, umuman, Konstitutsiya to'g'ridan to'g'ri ishlaydigan hujjat bo'lishi, ya'ni uning normalarini sudlarda to'g'ridan to'g'ri qo'llash amaliyotini yo'lga qo'yish maqsadida oliy sud plenumining tegishli qarori qabul qilindi. Shunga asosan, keyingi vaqtda Konstitutsiya normalarini sud jarayonida to'g'ridan to'g'ri qo'llash amaliyoti kengayib bormoqda. Birgina o'tgan yilda jinoyat ishlari bo'yicha sudlar hujjatlarida Konstitutsiyaga 2023-yilga nisbatan 4,8 baravar ko'p to'g'ridan to'g'ri havola qilingani ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Bugun yurtimizda kechayotgan barcha yo'nalishdagi ortga qaytmas islohotlar markazida inson omili turibdi. Bu hayotiy haqiqatni Prezidentimizning "Har bir qaror, har bir xizmat, har bir jarayon faqat inson manfaatiga xizmat qilishi zarur" degan qat'iy da'vatida, har bir yurtdoshimizning yaxshilanib borayotgan hayotida, ushalayotgan millionlab orzularda yaqqol ko'rish mumkin.

Konstitutsiya — dinamik, ya'ni harakatdagi, o'sish va rivojlanishdagi asosiy o'ta muhim hujjat. Shu ma'noda, yangi tahrirdagi bosh qonunimiz yangi O'zbekistonning ulkan maralarga erishishi, pirovardida, xalqimiz farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad shu tabarruk zaminda yashayotgan har bir insonning orzularini ro'yobga chiqarish hamda munosib turmush sharoitini yaratishdan iborat ekan, har birimiz bu borada zimmasimizdagi ulkan majburiyatni to'la his etib, mas'uliyatli vazifalarni sidiqdildan, halol va vijdonan bajarishimiz, ayniqsa, butun xalqimiz hammualif bo'lgan yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalariga qat'iy amal qilishimiz shart.

KO'ZGU

YANGI O'ZBEKISTON

yuz\_official yuz.uz\_news yuz.uz

Hamkorlik

Xalqaro metrik konvensiya:  
JAHON SAVDO TASHKILOTIGA  
QO'SHILISHNING MUHIM SHARTI

2025-yil 27-noyabrda Prezidentimiz “Xalqaro metrik Konvensiyaga O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi haqida”gi qonunni imzoladi. Mazkur konvensiyaga qo‘shilgani mamlakatimiz taraqqiyotida tarixiy ahamiyatga ega voqea sifatida qayd etildi. Bu nafaqat texnik soha, balki milliy iqtisodiyot, xalqaro savdo, ilmiy salohiyat va fuqarolar turmushi sifatiga katta ta’sir ko‘rsatadigan o‘ta muhim strategik qaror bo‘ldi. Yangi O‘zbekiston uchun jahon standartlari bilan uyg‘unlashish, global ilmfan maydonidan munosib o‘rin egallash, eksport salohiyatini oshirish va zamonaviy metrologiya infratuzilmasini yaratishda o‘zining amaliy ifodasini topmoqda.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

WORLD TRADE ORGANIZATION

Xalqaro metrik konvensiya 1875-yil 20-may kuni Parijda qabul qilingan. U ilmiy metrologiya tarixidagi eng muhim hujjatlardan biri bo'lib, o'tgan asrlardagi texnik ixtirolarni bartaraf etishni ko'zda tutgan. Mazkur konvensiya Parijda o'tkazilgan diplomatik konferensiyada o'sha davrning ilg'or davlatlari ishtirokida qabul qilingan va jahon miqyosida yagona, aniq va ishonchli o'lchash tizimini barpo etishga qaratilgan.

Konvensiya qabul qilingan davrda davlatlarda turlicha o'lchash tizimi mavjud bo'lgan. Shu sababli savdo, sanoat va ilm-fan sohalarida ko'plab murakkabliklar yuzaga kelgan. Mazkur muammolarni hal qilish uchun umuminsoniy yechim sifatida yagona metrologiya asos yaratish zarurati tug'ilgan. Parijda qabul qilingan talablar aynan shu muammolarga yo'naltirilgan bo'lib, barcha davlat uchun umumiy etalon va o'lchash qoidalarini belgilab berdi.

Konvensiya imzolanganidan keyin davlatlar deyarli barcha mintaqada ushbu konvensiya ishtirokchisidir. Bu hujjatning global ahamiyati va universal qiymatini yanada oshirgan. Konvensiyaning amaliy ijrosini ta'minlash maqsadida Parijda Xalqaro tarozi va o'lchovlar byurosi tashkil qilingan. Byuro xalqaro etalonlarni saqlash, doimiy yangilash va a'zo davlatlar bilan ilmiy hamkorlik qilish vazifalarini bajaradi. Shuningdek, mamlakatlar o'rtasida o'lchovlar birlamligini ta'minlashda global ilmiy markaz vazifasini o'taydi.

Mazkur hujjat qabul qilinganidan keyin bir necha bor takomillashtirilgan. Bunday o'zgarishlar ilm-fan taraqqiyoti, texnologiyalar rivoji va davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning kengayishi bilan bog'liq. Uning mukammalligi va zamonaviy talablarga mosligi esa konvensiyaning ahamiyatini yanada oshirmoqda.

O'zbekistonning Xalqaro metrik konvensiyaga qo'shilishi yurtimizda ilg'or metrologik tizimni shakllantirishda muhim burilish nuqtasi bo'ldi. Bu qadam milliy standartlar va o'lchash jarayonlarini xalqaro me'yorlar bilan uyg'unlashtirish, savdo-sotiqda shaffoflikni ta'minlash va ilmiy tadqiqot ishlari yangi bosqichga ko'tarish imkonini beradi.

Mamlakatimiz endi xalqaro konsultativ qo'mitalarda ishtirok etishi, Xalqaro tarozi va o'lchovlar byurosining amaliy faoliyatida to'la huquqli ishtirokchiga aylanishi, milliy mutaxassislarning xorijdagi laboratoriyalarda



malaka oshirishini ta'minlashi mumkin. Bu esa O'zbekistonda yuqori malakali metrolog kadrlar yetishishini tezlashtiradi. Ilmiy salohiyatni kuchaytiradi va ichki infratuzilmani tubdan yangilaydi.

Metrologiya va iqtisodiyot o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Rasmiy tan olingan o'lchovlarsiz eksport-import jarayonidagi baholash, sifat nazorati va mahsulot xavfsizligi masalalari yetarli darajada hal etilmaydi. Shu sababli konvensiyaga qo'shilish iqtisodiyot uchun iqtisodiy munosabatlarda texnik to'siqlarni kamaytirish, eksport mahsulotlarining xalqaro bozorda tan olinishida yangi imkoniyatlar yaratish, innovatsion texnologiyalar

“Mamlakatimizning Jahon savdo tashkilotiga qo‘shilishi jarayonida texnik to‘siqlarni bartaraf etish asosiy shartlardan biridir. Xalqaro metrologiya tizimiga to‘laqonli integratsiya bu jarayonni sezilarli darajada yengillashtiradi. Chunki JST standartlar, texnik reglamentlar va o‘lchovlar yagonaligiga qat’iy e’tibor qaratadi.

va zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlarini joriy etishni osonlashtirish, xorijiy sarmoyadorlar uchun ishonchli muhit yaratish, sanoatda sifat boshqaruvin



yaxshilash kabi yo'nalishlarda strategik ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligi aynan o'lchovlar aniqligi va standartlarga mosligi bilan belgilanadi. Metrologik bazaning kuchayishi esa milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mamlakatimizning Jahon savdo tashkilotiga qo'shilishi jarayonida texnik to'siqlarni bartaraf etish asosiy shartlardan biridir. Xalqaro metrologiya tizimiga to'laqonli integratsiya bu jarayonni sezilarli darajada yengillashtiradi. Chunki JST standartlar,

muhim bo'lib, noaniq o'lchash orqali dori kam yoki ko'p berilishi ehtimoli keskin kamayadi. Kommunal xizmatlarda ham aholi manfaati himoya qilinadi: elektr energiyasi, issiqlik, suv va gaz hisoblagichlari xalqaro mezonlarga mos tarzda tekshirilishi hisob-kitoblarning shaffof va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi. Iste'molchilar har bir xarid, xizmat yoki hisob-kitobda adolat, aniqlik va shaffoflikni his qiladi. Bu esa aholi turmush sifati va davlatga ishonchini yanada oshiradi. O'lchovlar aniqligi qanchalik yuqori bo'lsa, iste'molchi huquqlari shunchalik himoya qilingan bo'ladi. Sifatsiz va xatarli mahsulotlar kirib kelishining oldi olinadi, energiya va resurslardan foydalanishda shaffoflik ta'minlanadi.

Xalqaro metrik konvensiyaga qo'shilish O'zbekiston uchun faqat texnik jarayon emas, balki strategik yo'nalish sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu qadam mamlakatimizda ilmiy salohiyatni mustahkamlaydi, sifat infratuzilmasini zamonaviy darajada shakllantiradi, xalqaro iqtisodiy integratsiyani tezlashtiradi.

Shu bilan birga, bu yangilik mamlakatimizga xalqaro konsultativ qo'mitalar hamda Xalqaro tarozi va o'lchovlar byurosi laboratoriyalari faoliyatida to'laqonli ishtirok etish, milliy mutaxassislarning xorijda malaka oshirishi va stajirovkalarda ishtirok etishi, xalqaro savdoda texnik to'siqlarni kamaytirish, mahalliy mahsulotlarning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish kabi keng imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, investorlar va xalqaro tashkilotlar ishonchini mustahkamlaydi, eksport salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi, xalqaro e'tirof etilgan o'lchov natijalaridan foydalanish imkonini beradi, yurtimizning xalqaro reyting va indekslardagi ko'rsatkichlarini yaxshilaydi.

Prezidentimiz tomonidan imzolangan qonun mamlakatimizda aniq va ishonchli o'lchash amaliyotini xalqaro mezonlar darajasida rivojlantirib, metrologiya sohasida barqaror o'sishni ta'minlash va yangi O'zbekistonning global hamjamiyatdagi nufuzini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Naibaxon MAMADALIYEVA,  
Texnik jihatdan tartibga solish agentligi  
direktori maslahatchisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

Ilm-fan tinimsiz izlanish demakdir. Tadqiqotchi butun vujudi bilan qo'lga kiritayotgan dastlabki va keyingi natijalarni yaxlit tizimga soladi, o'tkazayotgan tadqiqoti ahamiyati, qiymatini anglashi, uni yoqlashi jarayonida toblanib boradi. Tanlangan yo'nalish, sohaga qiziqish va muvaffaqiyatga erishish insondan katta qat'iyat va tinimsiz mehnat talab qiladi. Yurtimizda o'z so'ziga ega, izlanishlari bilan ilm-fan rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan xotin-qizlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ularning tadqiqot va izlanishlari, ilgari surayotgan loyihalari tibbiyot, sanoat, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy-ma'rifiy va madaniy sohalar rivojiga xizmat qilmoqda.

Risolat MADIYEVA,  
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Shu yil oktabr oyida Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida O'zbekiston Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti, professor Shahlo Turdiqulovaga Jahon fanlar akademiyasi (TWAS) akademigi diplomi topshirildi. Biotexnologiya bo'yicha doktorlik, biokimyo va hujayra biologiyasi bo'yicha fan doktori darajasiga ega olimamamlakatimizda inson genetikasi tadqiqotlarini muvaffaqiyatli o'tkazdi va 670 ta kasallikka moyillik genlari bilan bog'liq 1450 ta genetik markerni aniqladi. 24 ming namunadan iborat milliy DNK bankini yaratdi. U yurtimizda birinchi PZR testini ishlab chiqishga rahbarlik qildi va ZF-UZVAC-2001 COVID-19 vaktsinasining klinik sinovlariga hamrohlik qildi. Olimaning Jahon fanlar akademiyasi akademigi etib saylangani yurtimizda xotin-qizlarning ilm-fan bilan shug'ullanishi uchun yaratilgan imkoniyatlarga yana bir dalil bo'ldi.

Joriy yil noyabr oyida poytaxtimizda bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi doirasida adabiyot, madaniyat, san'at, fan, ta'lim va raqamli texnologiyalar sohalarida katta yutuqlarga erishgan bir guruh yetuk mutaxassislariga “Kelajak merosi” mukofoti topshirildi. Xalqaro miqyosda tan olingan bu mukofot bilan Ozarbayjon hamda Markaziy Osiyo davlatlarining tanilgan shaxslari qatori yurtdoshimiz Dilfuza Egamberdiyeva ham taqdirlandi.

Hozir mamlakatimiz ilm-fanida 5000 ga yaqin olimamamlakatimizda ta'limni olib boradigan fanlar akademiyasi tizimida 30 dan ortiq ilmiy-tadqiqot muassasasida 5 akademik, 117 fan doktori, 272 fan nomzodi va falsafa doktori bo'lgan xotin-qizlar ilm-fan bilan mashg'ul.

Tizimda ayollar soni yildan yilga oshib bormoqda, — deydi Fanlar akademiyasining ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'limi rahbari Nodira Mustafoyeva. — Tayanch doktorantura hamda doktoranturada tahsil olayotganlar orasida ayol-qizlar 30-35 foizni tashkil qilyapti. Eng muhimi, aniq va tabiiy fanlar yo'nalishida izlanuvchilar ulushi oshib bormoqda.



“

**TCHEE — TABIATDA MAVJUD, BEZARAR, QAYTA TIKLANADIGAN, EKOLOGIK XAVFSIZ ERITUVCHILAR BO'LIB, XALQONA AYTGANDA, O'SIMLIK LARDAN MODDA AJRATISHDA ZAHARLI ORGANIK ERITUVCHILAR O'RNINI BOSADIGAN YANGI AVLOD “YASHIL” KIMYO TEXNOLOGIYASIDIR.**

kimyoviy erituvchilar qoldig'ini kamaytirishga amaliy yechim bo'ladi. Kimyoviy erituvchilar qimmat, ekologik zararli va ba'zan mahsulot tarkibida qolgan sababli zaharli ta'sir qilishi mumkin. TCHEE texnologiyalari esa bu muammoni to'liq hal qiladi, modda ajratish arzonlashadi, chiqarilayotgan moddalar sifati va chiqishi bir necha barobar ortib, tayyor

ilmiy poydevor hozirlamoqda. Uchinchidan, TCHEEda ajratilgan moddalar asosida ishlab chiqiladigan tayyor mahsulotlar xalqaro bozorda raqobatbardosh bo'lishi mumkin.

Jahon ilm-fani nuqtayi nazaridan esa bu tadqiqotlar o'zbek florasidagi noyob tabiiy birikmalarni barqaror, biologik xavfsiz, yuqori samarali shakllarda tadqiq qilishning yangi

yo'lini ochdi. TCHEE texnologiyalari dunyoda “yashil” kimyo, “biologik erituvchilar” va “sun'iy intellekt asosida dori yaratish” kabi yo'nalishlarga to'g'ridan to'g'ri hissa qo'shmoqda. O'g'iloyning tadqiqotlari mana shu global muammolar — inson salomatligi va ekologik xavfsizlik masalalariga zamonaviy, amaliyotga yaqin yechim taqdim etmoqda.

#### Ular aslo kam emas

Fanlar akademiyasi San'atshunoslik instituti tadqiqotchisi Malohat Turobovaning ilmiy loyihasi “Nogironligi bor bolalar uchun inklyuziv qo'g'irchoq teatri spektakllarini yaratish” mavzusiga bag'ishlanadi.

Nogironligi bor bolalar (eshitish, ko'rish, nutq, harakat yoki aqliy rivojlanishda muammosi bo'lganlar) madaniy hayotda to'liq ishtirok etish huquqiga ega. Qo'g'irchoq teatri esa bolalar bilan muloqot qilishning noan'anaviy, samarali va ta'sirchan usuli sifatida juda qulay san'at shaklidir. O'zbekistonda professional va bir nechta havaskor qo'g'irchoq teatrlari rivojlanib kelmogda. Zamonaviy raqamli texnologiyalar taraqqiyoti sharoitida, inklyuziv san'at tamoyillari asosida vizual, audiovizual va interfaol texnologiyalardan foydalanish, qo'g'irchoq obrazlari orqali bolalarning emotsional va kommunikativ rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatish imkoniyati ancha yuqori.

Yurtimizda inklyuziv qo'g'irchoq teatri nazariyasi va amaliyotini shakllantirishda ilmiy asoslar yetarli emas. Bunday bolalar uchun maxsus mo'ljallangan teatr texnologiyalari, qo'g'irchoq teatri rejissurasi, obraz psixologiyasi kabi masalalar yaxshi tadqiq etilmagan. Ayniqsa, eshitish va ko'rishda nuqsonli bor bolalar uchun maxsus formatlar ta'sirini tahlil qilishga ehtiyoj yuqori. Bunday teatr turi bolalarning fikrini ifoda etish, muloqot qilish va jamiyatga integratsiyalashuvi uchun ahamiyati amaliyotda ko'rinib, ilmiy tahlili va baholash mezonlari mavjud emas. Inklyuziv spektakl yaratish jarayonida rejissyorlik, pedagogika va defektologiya sohalar o'rtasidagi integratsiyaning uslubiy asoslari yetarli emasligi tadqiqotga asos bo'ldi.

Ushbu loyiha nogironligi bor bolalar uchun zamonaviy texnologiyalar asosida inklyuziv qo'g'irchoq teatri videospektakllarini ishlab chiqishni ko'zda tutadi, — deydi olimam. — Mazkur mahsulotlar YouTube va boshqa onlayn platformalar orqali butun respublika bo'ylab tarqatiladi. Bu loyiha

teatr san'atini raqamlashtirish orqali keng auditoriyaga yetib borish, barcha bolalar uchun teng madaniy muhit yaratish, ixtisoslashgan videomahsulotlar yordamida “aqlli ta'lim” imkonini kengaytirish, jamiyatda inklyuzivlik madaniyatini rivojlantirish hamda ijtimoiy innovatsiya sifatida imkoniyat tengligini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekistonda qo'g'irchoq teatrida inklyuziv yondashuvni tadqiq etishga qaratilgan izlanishda nogironligi bor bolalar ehtiyojlariga moslashtirilgan sahna yechimlari, qo'g'irchoq vositalari va vizual-kommunikativ texnologiyalarni joriy etish masalalari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, inklyuziv qo'g'irchoq spektakllari uchun metodik tavsiyalar, multimedia resurslar va rejissura yo'nalishidagi yangi yondashuvlar ishlab chiqiladi.

Inklyuziv bolalar uchun qo'g'irchoq spektakllari nafaqat tarbiya va san'atga, balki ilm-fan, xususan, pedagogika, psixologiya, logopediya, defektologiya, san'atshunoslik va sog'liqni saqlash kabi sohalariga sezilarli hissa qo'shadi. Xususan, pedagogikada inklyuziv ta'lim modellari kengaytiradi. Spektakllarni ko'rish, eshitish, sezgi, harakat orqali bilim berilishi sababli ilm-fan uchun yangi multimodal o'qitish modellari ishlab chiqish imkonini yaratadi.

#### Boy madaniyat ifodasi

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi tayanch doktoranti Shahnoza Yaxiyayevaning ilmiy ishida jirovlar, baxshilarning ijod namunalari yoshlarga animatsion uslubda taqdim etish mavzusi ko'tarilgan.

— Xalq dostonlari deyarli barcha turkiy xalqlarda mavjud va ular turli shaklda ma'naviy obida sifatida yashab kelmogda, — deydi tadqiqotchi. — Folklorshunoslarimiz jirovlardan dostonlarni yozib olish ishlarini XX asrning 40-50-yillarida boshlagan. Jarayon faqat qo'g'irchoq qalam yordamida bajarilgan.

Folklor namunalari, ijrochilari, ijro usullari hamda boshqa xalqlar san'ati bilan mustarak va o'ziga xos xususiyatlarini yoritishga oid ilmiy-ommabop animatsion video ishlab chiqish bugun dolzarb vazifalardan. Zotan, ushbu loyiha respublika baxshichilik san'ati markazi, musiqa va baxshichilik maktablari, ma'naviyat va ma'rif, axborot-resurs markazlari, muzeylar, oliy ta'lim muassasalari, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalari faoliyati uchun muhim intellektual baza sifatida xizmat qiladi.

— Shu vaqtgacha Qoraqalpog'istonda jirov, baxshilar hayoti va ijodi animatsion shaklda ishlanmagan, — deydi Shahnoza Yaxiyayeva. — Butun dunyoda texnologiya rivojlangani sari yoshlarimizga kitob o'qitish qiyinlashib bormogda. Shu bois, qisqa metrajli animatsion film yaratish zarurati vujudga keldi. Chunki animatsion filmlarning insonga, ayniqsa, yoshlarga ta'siri kuchli.

Qoraqalpog' xalq o'g'zaki ijodi, xususan, xalq dostonlari bo'yicha bir qancha ishlar qilingan. Mazkur loyiha orqali esa jirov-baxshi va xalq dostonlarining mavjud variantlari keng miqyosda ilmiy-ommabop shaklda o'rganilgan holda zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida raqamlashtiriladi va animatsion shaklda ishlanadi. Bu o'z-o'zidan hozirgacha kitob o'lingan boshqa o'quv adabiyotlaridan foydalanish imkoniyati kengligi, globallashuv davrida jahon hamjamiyatiga targ'ib etishning cheksizligi va qulayligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, mahalliy va xorijlik tadqiqotlar uchun tushunilishi qiyin so'zlarning izohli lug'atini yaratish, shu orqali yoshlar hamda jahon hamjamiyatining nomoddiy madaniy merosiga e'tiborini oshirish ko'zda tutilgan.

Hozirgi qoraqalpog' jirovlari, baxshilari va ular ijro etgan dostonlar bo'yicha ma'lumotlar to'plash, alohida muhim elementlarini UNESCO tomonidan muhofaza qilinadigan obyektlar ro'yxatiga kiritishga tayyorgarlik, madaniy merosga oid ma'lumotlarni ommalashtirish rejalashtirilgan. Shuningdek, raqamli arxivlarni yaratish, axborotni vizualizatsiya qilish va madaniy merosning kompyuter tahlilini o'tkazish kutilyapti.

## Taassurot

Zamonaviy davlat boshqaruvi tizimi global o'zgarishlar, texnologik taraqqiyot va jamiyatning oshib bormoqda, — deydi Fanlar akademiyasining ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'limi rahbari Nodira Mustafoyeva. — Tayanch doktorantura hamda doktoranturada tahsil olayotganlar orasida ayol-qizlar 30-35 foizni tashkil qilyapti. Eng muhimi, aniq va tabiiy fanlar yo'nalishida izlanuvchilar ulushi oshib bormoqda.

## GENDER TENGLIK VA ZAMONAVIY BOSHQARUV

### STRATEGIK FIKRLASH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRADI



**Shohida IBROHIMOVA,**  
“Rahbar ayollar maktabi”  
tinglovchisi

Fransiyaning Davlat xizmati vazirligi huzuridagi davlat xizmatini boshqarish bosh boshqarmasi faoliyati bilan

tanishuv, ayniqsa, esda qolarli, unutilmas xotiralarga boy bo'ldi. Bu yerda fransuz davlat xizmati tizimining institutsional arxitekturasini, kadrlar siyosati, gender tenglikni ta'minlash strategiyasi va davlat xizmatini modernizatsiya qilish jarayoni haqida keng ma'lumotga ega bo'ldik. Ayollarni rahbarlikka tayyorlash, malaka oshirish dasturlari, teng imkoniyatlarni kafolatlovchi mexanizmlar va natijadorlikka asoslangan baholash tizimining ishlash jarayoni bilan bevosita tanishdik. Xususan, gender tenglik bo'yicha barcha davlat idoralarda aniq indiktorlar, monitoring tizimi va samaradorlik ko'rsatkichlari mavjudligi hamda bu tizimning izchil ishlayotgani e'tiborni tordirdi. Mazkur yondashuv O'zbekiston amaliyoti uchun ham muhim metodologik asos bo'lishi mumkin.

Fransiya Davlat xizmati milliy institutida o'tkazilgan treninglar stajirovkaning eng ta'sirchan qismi bo'lib, ular ayol rahbarlar uchun mo'ljallangan zamonaviy o'quv



modellariga asoslangan edi. Xususan, UNESCO eksperti o'tkazgan kommunikativ psixologiyaga bag'ishlangan mashg'ulotlar

rahbarlikda samarali muloqot naqadar muhimligini yana bir bor tasdiqladi.

Raqamli boshqaruv bo'yicha davlat

raqamli sektori ekspertlari o'tkazgan seminarlarda davlat boshqaruvida moslashuvchan yetakchilik modeli qay darajada joriy etilayotgani yoritib berildi. Mazkur yondashuvning asosiy ustuni bo'lgan tezkor moslashuv, ochiq muloqot, shaffoflik, jamoaviy fikrlash va innovatsion qarorlar qabul qilish davlat xizmatlarining taqabuli va sifatini oshirishda muhim omil ekanini angladik. Bu tajriba O'zbekistonda davlat xizmatini rivojlantirish uchun ham dolzarb bo'lib, kelajakda raqamli boshqaruvi rivojlantirish yo'nalishida muhim imkoniyatlar yaratishi mumkin.

Stajirovka o'rganmalarimiz faoliyatimizda amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu stajirovka nafaqat xalqaro tajribani o'rganish imkoniyatini berdi, balki mamlakatimiz davlat xizmati tizimida ayollar ishtirokini kuchaytirish, gender tenglikni ta'minlash, innovatsion boshqaruv yondashuvlarini tatbiq etish va inson resurslarini rivojlantirish bo'yicha yangi strategik qarashlarni shakllantirishda o'ziga xos amaliy platformaga aylandi. Fransiyaning ilg'or tajribasi asosida ishlab chiqiladigan taklif va tashabbuslar yurtimizda samarali, zamonaviy davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish yo'lida muhim o'rin tutadi.

Albatta o‘qing!

# Ismilar xosiyati

(“SO‘Z XUSUSIDA SO‘Z” KITOBIDAN)



Asli “zumurrud” bo‘lgan “zumrad” so‘zi bor. Bu qizlarga ism qilib ham qo‘yiladi. Bu so‘zning “zumrat” shakli, so‘z oxiridagi jarangli tovush “d”ning jarangsizlanib “t”ga aylanishi va o‘rtadagi “u” va bitta “r” tovushining tushib qolishi natijasida vujudga kelgan. So‘z o‘rtasidagi tovushlarning tushib qolishi “tortilish” deyiladi. Oddiy so‘zlashuv tilida tortilish ko‘p uchraydi, kabutar – kaptar, Muhammadamin – Madamin singari.

Mumtoz adabiyotda mazkur so‘zlarning “zumrad” shakli ishlatilmaydi. Faqat “zumurrud” yoki “zumurrud” ishlatiladi. Shu yerda bir jihatni aniqlab olsak. Arab yozuvida ze, re, mim va dol harflaridan iborat so‘zni “zumrad” deb o‘qish ham mumkin. Uni “zumurrad” yoki “zumurrud” deb o‘qish kerakligini qayerdan bilish mumkin? Buni aniqlash uchun lug‘atlarga, xususan, eski lug‘atlarga murojaat qilamiz. Masalan, “G‘iyos-ul lug‘at”da shu so‘z “zumurrud” va “zumurrad” deb o‘qilishi aytilgan. Lekin bu bilan kifoyalanmaymiz va she’rga murojaat qilib, she’rning vaznidan shu so‘zning qaysi ko‘rinishda ishlatilganini bilib olamiz. Masalan, Husayniy shu so‘zni foilotun, foilotun, foilotun, foilun vaznidagi bir she’rda keltirgan:

Ul zumurrad xatki,  
chiqmish la’li xandon ustina,  
Sabzayidurkim, tushuptur  
obi hayvon ustina.

“Ul zumurrad”ning rukni foilotun. Agar “ul zumrad” desak, “foilotun” vazniga tushmaydi, boshqa “maf’uvlun” degan rukn bor, shunga tushadi. Bu baytda ochiq yuzli, odobli va bolig‘u fasih o‘spirinning yangi chiqqan, ko‘kish tus olgan qora murti vasf etilgan. Murut “zumurrad” xat deb atalgan. “Xat”ning lug‘aviy ma’nosi chiziqliq va yozuvdir. Murut ham shoir tasavvurida borliqlik rassomi yoki xattoti tomonidan inson yuzining safhasiga tortilgan go‘zal chiziqlik yoki harfdir. “Zumurrad”dan murud mo‘ylovning yangi ko‘kargan maysakligi va ko‘kish tuskagi qoraligidir. La’l, ya’ni yuqutga o‘xshagan qizil toshdan maqsad labdir. “Xandon” kulib turuvchi degani.

“Ul zumurrad xatki chiqmish la’li xandon ustina” deganda bog‘lovchi bo‘lmish “ki”dan keyingi so‘zlar aniqlovchi ergash gap bo‘lib, “xat”ni aniqlab kelyapti. Agar mazkur misrani “ki”siz nasr bilan aytsek, “la’li xandon ustina chiqmish ul zumurrad xat” bo‘ladi. “La’l” so‘zidan keyingi urg‘usiz talaffuz etiladigan “i” izofa ko‘makchisi so‘zning oldingi so‘zga aniqlovchi bo‘lib kelganini bildiradi. “La’li xandon” xandon kuluvchi la’l, ikkinchi misradagi “obi hayvon” hayvon obi, ya’ni hayot suvi degani. “Hayvon” so‘zining “tirik” degan ma’nosi ham bor. Shunga binoan tirik organizmlarning hammasi “hayvon” deyiladi. Baytning birinchi misrasidagi “zumurrad”, “xat” va “la’l” so‘zlari istiora qilingan.

Baytning ikkinchi misrasi “sabzayidurkim,

tushuptur obi hayvon ustina”. Bu misradagi “sabza” so‘zi ko‘kat, maysa degan ma’noda.

Undan keyingi urg‘usiz va cho‘zib talaffuz etiladigan “yi” ko‘rsatish yuklamasidir. Ko‘rsatish yuklamasi unli harf bilan tugagan so‘zlardan keyin “y” bilan “yi” deb, undosh bilan tugagan so‘zlardan keyin “y”siz “i” deb aytiladi. Demak, “sabzayidurkim”ni “shunday sabzadurki” deb tushunish kerak.

Bundan anglashiladiki,  
Ul zumurrad xatki,  
chiqmish la’li xandon ustina,  
Sabzayidurkim, tushuptur  
obi hayvon ustina

baytini “kulib turgan lab ustidagi yangi chiqqan murut hayot chashmasi ustida uning mayسادir” deb tushunishimiz kerak ekan. Bunday deydishdan shoirning maqsadi shuki, tirishib ilmu hunar o‘rganayotgan, yomon qiliq va yaramas ishlardan o‘zini tiya olgan xushf-e’l yigitchaning javohiri uning o‘zi bilan, u turli toshlarga muhtoj emas, uning og‘zi hayot chashmasidir. Chunki og‘zidan yaramas so‘zlar emas, balki eshitgan kishining umrini uzaytiradigan shirin va foydali so‘zlar chiqadi. Shunday bolaning ota-onasi, aka-ukasi yoki opa-singlisi yoxud do‘sti bo‘lgan kishiga zumurradu la’l va hayot suvining keragi yo‘q.

Mazkur so‘zning, ya’ni “zumurrad”ning “zumrad” shakli ham hozir adabiy tildan o‘rin olgan. Ammo yozganda oxirgi tovush “d” harfi bilan yoziladi. Binobarin bu so‘zni “zumrad” shaklida ishlatish me’yoriy holatdir. Masalan, Uyg‘un:

“Kumush qishdan, zumrad bahordan  
Qolishmaydi kuzning ziyati”,  
degan. Ammo badiiy nuqtida “zumurrad” ham ishlatiladi. Zumrad ko‘proq oddiy uslubga xos, masalan, “zumrad ko‘zli uzuk oldim” deganda zumrad shakli munosibroq bo‘lsa, “zumrad ko‘kda tinchlik kabutari parvoz qilmoqda” deganda “zumurrad” shakli munosibroq tushadi.

\*\*\*

Mazmundor ismlardan biri MANNOP bo‘lib, buning asl shakli “manof”, lug‘aviy ma’nosi yuksak, ulug‘dir. Arab lug‘atlarida bu so‘z toqqa nisbatan ishlatilishi ko‘rsatilgan.

\*\*\*

“Mannon” ismining lug‘aviy ma’nosi minnat qiluvchidir. Minnat so‘zi ham ijobiy, ham

“Manof” so‘zining “mannop” shaklini olishi sababiga kelsak, “f” tovushining o‘zbek tilida “p”ga aylanishi ommaviy hodisadir.

Turkiy tillarda “f” tovushi aslan bo‘lmagan uchun hamma lahja va shevalarda “p” tovushiga o‘tadi. Shunga binoan “manof” so‘zining oxiridagi “f” turkiy tillarning aksarida, jumladan, o‘zbek tilida “p”ga o‘tgan. Mazkur so‘zdagi “n” tovushining ikkilanishi esa “mannon” singari o‘rtadagi undoshi ikkilangan so‘zlarga qiyosan o‘zlashtirish natijasida vujudga kelgan.

“Mannof” so‘zi qirg‘iz tilida “manap” shaklida oqsqol ma’nosida qo‘llanadi. Eski vaqtda manap urug‘ yoki qabilaning ulug‘i hisoblangan va u o‘z fuqarosining mulki va kuchidan istaganicha foydalangan. Odatda manapning xususiy mulki bo‘lmagan. Shunga binoan “manap bo‘lsang, boy bo‘lbo‘ysog‘n”, ya’ni “manap bo‘lsang, boy bo‘lmaysan” degan qirg‘iz maqoli ham vujudga kelgan. Shu bilan birga, qadimda manaplarning darajasi turlicha bo‘lgan. Ularning eng ulug‘i “cho‘ng manap” yoki “og‘a manap”, kichigi “chala manap”, eng kichigi “cho‘lo‘q manap” deb ataladi. Manap naslidan bo‘lgani “jinjirluu manap”, fuqarodan chiqqani “buqara manap” deyilgan.

salbiy ma’nolarda qo‘llanadi. Ijobiy ma’noda minnat kishiga quvonadigan darajada yaxshilik qilishdir. Salbiy ma’noda minnat kishiga qilgan yaxshilikni uning yuziga solib ta’na qilishdir. Shu ma’nodagi minnat nomardlik alomati hisoblanadi va “nomardning ishi minnatdir”, deyiladi. “Minnat” so‘zining ushbu ikki — ijobiy va salbiy ma’nosiga asosan, “mannon” so‘zi ham salbiy va ijobiy ma’nolarda qo‘llanadi. Ijobiy ma’noda “mannon” kishiga uni quvontiradigan darajada yaxshilik qiluvchidir. Mannon va Abdumannon ismlarida bu so‘zning mana shu ijobiy ma’nosi nazarda tutiladi. Ammo “mannona” maxsus salbiy ma’noda ham iste’mol qilinadi. “Mannona” so‘zining oxiridagi “a” “shoira”, “muallima” so‘zlaridagi kabi muannaslik, ya’ni xotin-qizlikni bildiruvchi qo‘shimchadir. “Mannona” so‘zi maxsus ma’noda qo‘llanganda boylik, amal yoki zodagonlik nuqtayi nazaridan o‘zining turmush o‘rtog‘iga zulm, tazyiq qiladigan xotin yoki shunday qilishi mumkin bo‘lgan qiz tushuniladi.

Sa’diy Sheroziy “Guliston” asarida bir mannonaga uylangani va uning oqibati haqida qiziq hikoya keltiradi.

Hikoyaning qisqacha mazmuni bunday: Sa’diy sayohat qilib yurgan vaqtlarida Damashqda bir muddat do‘stlarining subhatida bo‘lgach xerikadi va Quddusga qarab yo‘l oladi. Tarablusga kelganda faranglar qo‘liga asir bo‘lib tushadi. Bir kuni uni bir guruh yahudiy bilan loy ishiga solgan paytlarida Sa’diyni taniydigan halablik bir amaldor uni o‘n dinor evaziga asirlikdan qutqarib, Halabga olib ketadi va yuz dinor sep berib, o‘zining qiziga nikohlab qo‘yadi. Qiz badf-e’l va yomon tili bo‘lib, Sa’diyni mensimay ko‘p ranjitadi. Navbatdagi janjallarning birida Sa’diyya qarab: “Sen kimsan o‘zing, otam o‘n dinorga qutqarib olgan asir emasman?” deb minnat qiladi. Shunda Sa’diy “To‘g‘ri, otang meni o‘n dinorga qutqarib, yuz dinorga sening qo‘lingga bandi qilib topshirdi”, deydi.

Mannonalardan biri yaqinda “Otaral so‘zi — aqlning ko‘zi” teleko‘rsatuvida ham Xadicha nomi bilan namoyish qilindi. Bu mannona qaynotasini behurmatlab, erining idora ishlari aralashib, ko‘p noma’quilliklarni qildi. Mana shunday xotin-qizlarga ota-bobolarimiz “mannona” deb ot qo‘ygan. Odatda bu sifat nodon xotirlarda bo‘ladi va bular o‘z turmushini o‘zi zaharlaydi.

\*\*\*

Qizlarga qo‘yiladigan ikkita ism bor. Biri “Zuhra”, ikkinchisi “Zahro”. Agar “Z”dan keyin “u” kelsa, oxirgi tovush “a” bo‘ladi, ya’ni “Zuhra” deb aytiladi va qanday aytilsa, shunday yoziladi. Agar “Z”dan so‘ng “a” tovushi kelsa, oxirgi tovush “o” bo‘ladi, ya’ni “Zahro” deb talaffuz qilinadi va shu talaffuz yozuvda ham aks ettiriladi. Chaqaloqqa “Zuhra” ismi qo‘yilganda Zuhra sayyorasi nazarda tutiladi va bu Venera degan ismning sharqonasi bo‘ladi. “Zahro” deb ism qo‘yilganda qizaloqning oppoqligi nazarda tutiladi. Agar qiz qora tusli bo‘lsa, “Laylo” deb ism qo‘yiladi. Hozir bu otni ba’zilar Majnunning Laylosini nazarda tutib ham qo‘yadi. Ammo “Laylo”ning lug‘aviy ma’nosi “qoracha”, tun rangidagi qiz degani. Agar bolaning rangi qizil bo‘lsa, “Hamro” deb nom qo‘yiladi. “Ahmar” ham qizil degani. Aslida, Ahmar o‘g‘il bolaga va Hamro qiz bolaga qo‘yilgan. Ammo keyingi paytlarda “Ahmar” so‘zi bilan “Hamro” so‘zi orasidagi arab tilida mavjud bo‘lgan jinsiy farq o‘zbek va tojik tillarida uqilmagan uchun o‘zbek va tojiklar o‘g‘il bolaga ham Hamro deb ot qo‘ygan.

\*\*\*

“Kozim” ismining lug‘aviy ma’nosi “g‘azabni yutuvchi”, ya’ni achchig‘i kelganda, o‘zini bosib, achchiqlanganini bildirmay, kishiga yaxshi muomala qiluvchidir. Bu ijobiy xislatlardan. Kozimlar janjal, kelishmovchilik va urishish, arazlashish kabi noma’qul hodisalarning oldini oluvchi kishilar bo‘lgani uchun ular jamiyatda aziz hisoblanadi. Binobarin ota-ona farzandining shunday bo‘lishini orzu qilib, unga Kozim deb ot qo‘yadi.

\*\*\*

“Robiya” to‘rtinchi qiz degani. Tug‘ilgan bolaga uning nechanchi bola ekanini hisobga olib ot qo‘yish ham bor. Shu ma’noda, o‘g‘il bolalarga nom qo‘yish Turkmaniston va O‘zbekistonning janubida mashhur. To‘rtinchi o‘g‘ilga Choriy, beshinchisiga Beshim, oltinchisiga Olti deb nom qo‘yadi.

Ikkinchi qizga “Soniya” va to‘rtinchi qizga “Robiya” deb ot qo‘yish Sharqda ko‘p tarqalgan. Soniya ikkinchi degani. Daqiqadan kichik vaqt yoki daraja birligi ham daqiqaga nisbatan ikkinchi bo‘linish birligi bo‘lgani uchun

“soniya” deb atalgan. “Sekunda” so‘zining ham lug‘aviy ma’nosi ikkinchi bo‘lib, ilm tarixi olimlarining aytishicha, termin sifatida “soniya”ning lotincha tarjimasidan iborat. Xuddi shuningdek, “gradus” “daraja”ning, “minuta” “daqiqqa”ning, “tersiya” “solisa”, ya’ni uchinchingin, “kvarta” “robiya”ning, “kvanta” “xomisa”, ya’ni beshinchining, “seksa” “sadsa”, ya’ni oltinchining, “septima” “sabi’a”, ya’ni yetinchining, “oktava” “samina”, ya’ni sakkizinchingin, “nona” “tasi’a”, ya’ni to‘qqizinchingin va “dedima” “ashira”, ya’ni o‘ninchining tarjimasidir.

\*\*\*

“Soli”ning asli “solih” bo‘lib, lug‘aviy ma’nosi tuzuk, yaroqlikdir. Bu so‘z maxsus ma’noda ham qo‘llanadi. Bunda “Solih” deb jamiyatdagi qonun-qoidalariga amal qilgan holda el qoralaydigan ishlardan o‘zini tiyib, halol tiriklik qiluvchi kishiga aytiladi. Ba’zan oddiy nuqtida “solih” ma’nosida “halol” so‘zi ham ishlatiladi. “Halol kishi” deganda solih nazarda tutiladi. Solihning ziddi fosiqidir. Zino, ichkilik, kashandalik kabi yaramas ishlardan qaytmaydigan kishi “fosiq” deb ataladi. Qisqacha aytganda, jamiyatning to‘g‘ri rivoji uchun yaroqli kishi “solih”, yaroqsiz “fosiqidir”. Solihning solih sifatida qiladigan amali “saloh” deb ataladi. Kishining biror ishga yaroqliligi, qodirligi “salohiyat” deyiladi. Solihni ruscha “pravednyy”, “chestnyy”, fosiqni “razvrtnik”, salohni “pravednost”, “chestnost”, salohiyatni “kompetentnost” deyish mumkin.

XIV asrda yashab ijod etgan o‘zbek shoiri Xorazmiy mashhur “Muhabbatnoma”sining xotima qismida o‘quvchilardan quyidagi bayt bilan duo talab qiladi:

O‘qig‘il fотиha, dur qibla yoni!  
Sevinसनdan Xorazmiy ravoni!

Asarni tadqiq qilib nashr etgan olimlardan biri — filologiya fanlari doktori, professor Amir Najib mazkur baytdagi “Xorazmiy ravoni” iborasini “Xorazmiy Ravoniyi” deb o‘qib, “Ravoniy” Xorazmiyning ikkinchi taxallusi bo‘lsa kerak degan fikrni maydonga tashladi. Bu fikr “ravon” so‘zining muhim bir ma’nosini nazarga olmaslik natijasida vujudga kelgan xato taxmimga asoslangan. “Ravon” so‘zi fors-tojik tilidagi “raftan” yurmoq, bormoq fe’lidan yasalgan aktiv sifatoshob bo‘lib, uning birinchi ma’nosi “yuruvchi”, “yurar”dir. Lekin bu so‘z “jon”, “ruh” ma’nosida ham ishlatiladi. Tanada yuruvchi va uni yurgizuvchi quvvat bo‘lgani uchun ruh va jonni “ravon” (yurgich) deb ataganlar. Hozirgi fors tilida psixolog “ravonshunos” va psixologiya “ravonshunosiy” deb ataladi. “Ravon” so‘zi “jon” ma’nosida o‘zbek adabiyotida ham ko‘p ishlatiladi. Binobarin “sevussun banda Xorazmiy ravoni”ni Kamina Xorazmiyning ruhi sevussin deb tushunish kerak.

**Alibek RUSTAMOV,**  
filologiya fanlari doktori,  
akademik



## Oramizdagi odamlar

# SURDOTARJIMA SHUNCHAKI ISHORA EMAS, QALBLARGA YO‘L OCHADIGAN TILDIR

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda 430 milliondan ortiq kishining eshitish qobiliyatida turli darajada muammosi bor. Shundan taxminan 70 million kishi ishora tildan asosiy muloqot vositasi sifatida foydalanadi. Yurtimizda eshitish qobiliyati cheklangan fuqarolar soni 40 mingdan ko‘p. Ularning katta qismi axborot olish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish uchun surdotarjimonlar xizmatidan foydalanadi.

Eshtimaydigan va gapirolmaydiganlarning ota-onalari ba’zan turli tushunmovchiliklar sabab karlar jamiyatiga yoki “Inson” ijtimoiy xizmatlar markaziga murojaat qiladi. “Bolaniz bizni tushunmayapti. U kar, eshitmaydi. Nima deyapti, so‘rab bering”, deyishadi. Aziz farzandining eshtimayotgani va gapira olmayotganidan bezovta bo‘layotgan ota-onalarga, birinchi navbatda, surdotarjimonlar ko‘makka keladi. Bevosita ularning madadi bilan negiron sifatida e’tirof etilganlar uchun jamiyatning barcha qatlamlari bilan muloqotga kirishish imkoniyati yaratiladi. Shu ma’noda, surdotarjimonlarni qalblararo ko‘priq quruvchilar deyish mumkin. Chunki bola sizning ovozingizni eshitmasa-da, nima deyayotganingizni his etadi. Shu sabab surdotarjimonlarni inson qalbidagi o‘y-



“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

Bosh muharrir:

**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyatda kompyuter markazida sahilalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.  
**Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — G-1246.  
34211 nusxada bosildi.  
Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.  
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etiladi.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Azizbek Yusupov  
Musahhih: Malohat Mingboyeva  
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

**Sarvar TO‘RAYEV,**  
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri